

“Jismoniy shaxslar uchun milliy valyutadagi
“Zamin” hamda elektron oferta asosida qo‘yiladigan
“Onlayn-Zamin” muddatli bank omonatlari bo‘yicha
operatsiyalarni amalga oshirish tartibi”ga
1-ILOVA

**Jismoniy shaxslar uchun milliy valyutadagi
“Zamin” muddatli bank omonati
SHARTNOMASI**

20 __ yil “__” _____ № _____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining “_____” bank xizmatlari ofisi
(keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va
Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tarafdin, va _____
_____ (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi),
ikkinchi tarafdin, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank Omonatchining _____ (_____) so‘mdagi pul
(so‘z bilan yoziladi)

mablag‘ini qabul qildi va uni 20606000..... omonat hisobvarag‘iga omonat
shartlariga muvofiq joylashtirdi.

2. Omonatchiga __ seriyali _____-son omonat daftarchasi ochildi va unda yuqorida
ko‘rsatilgan hisobvaraqa kirim qilingan omonat qiymati va boshqa tegishli ma’lumotlar o‘rnatilgan
tartibda aks ettirildi.

2-§. Omonat shartlari va hisob-kitoblar tartibi

3. Omonat muddati 18 oy, ya’ni omonatga pul mablag‘i qo‘yilgan sana: 20 __ yil “__”
_____, omonatni qaytarish sanasi: 20 __ yil “__” _____.

4. Omonatga yilda 365 kun hisobidan yillik __% foizlik stavkada daromad hisoblanadi.

5. Ushbu Shartnoma bo‘yicha jalb qilingan omonatning foiz stavkasi uning muddati tugagunga
qadar o‘zgarmaydi.

6. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarning kapitalizatsiyasi nazarda tutilmagan.

7. Omonatchi omonatga dastlabki 12 oy davomida qo'shimcha badal kiritishi mumkin.

8. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonatga qo'yilgan kundan boshlab 1 (bir) oy o'tgandan so'ng omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyati mavjud. Bunda omonatdagi mablag' qoldig'i 5 000 000,0 (besh million) so'mdan kam bo'lmasligi lozim.

9. Omonat bo'yicha foiz omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab omonatni Omonatchiga qaytarib beriladigan sanasigacha hisoblanadi.

Omonatchining omonat hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida Bank omonatdagi pul mablag'idan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

10. Omonat bo'yicha foiz har oyda, omonat qabul qilingan kundan keyin, to'lanadi. Agar omonat foizini to'lash dam olish yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelsa, omonat foizi keyingi bank ish kunida beriladi.

Agar omonatchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lsa, uning omonati bo'yicha to'lanadigan foiz (daromad) qiymatidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 382-moddasiga muvofiq 10% miqdorida Bank tomonidan soliq ushlab qolinadi hamda soliq organiga o'tkazib beriladi.

11. Omonat muddati tugagandan so'ng omonat omonatchiga qaytariladi.

Agar omonatni qaytarish dam olish yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelsa, omonat keyingi bank ish kunida qaytarib beriladi.

12. Omonatchi omonat muddati tugagandan keyin omonatni qaytarib olmasa, mazkur Omonat shartnomasi talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida uzaytirilgan hisoblanadi, keyingi amaliyot kunida uning uchun talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag'i ochiladi. Omonat mablag'i va unga hisoblangan foiz, ushbu kundan boshlab, Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag'idagi shaxsiy hisobvaraqa o'tkaziladi.

13. Omonatchi omonatni muddati tugamasdan to'liq qaytarmoqchi bo'lsa, u bu haqda Bankni omonatni olishni mo'ljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Bunda omonat shartnomasining amal qilishi to'xtatiladi, omonat muddatidan oldin qaytariladi va omonatga hisoblangan foizlar quyidagi shartlarga muvofiq qayta hisoblanadi va to'lanadi:

a) omonat 6 oydan kam muddat davomida turgan bo'lsa, hisoblangan foiz to'lanmaydi;

b) omonat 6 oydan 18 oygacha saqlangan bo'lsa, yillik __ (____) foiz;

Bunda omonat mablag'idan oldin to'lab berilgan foizlar bilan hisoblangan foizlar o'rtasidagi farq summasi omonat mablag'idan ushlab qolinadi.

14. Mablag'lar bank tomonidan omonat ochilganda va to'ldirilganda qabul qilinadi:

a) bank kassasi orqali naqd pulda;

b) omonatchining yoki uning ishonchli vakili nomiga ochilgan bank kartasidan pul o'tkazmasi orqali;

Uchinchi tomon hisobvaraqlaridan pul o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

15. Omonat muddatidan oldin yopilganda, shuningdek omonat mablag'lari qisman yechib olinganda, quyidagi hollarda omonatchidan Bank tariflariga muvofiq komissiya to'lovi undiriladi:

- a) naqd pulsiz shaklda kirim qilingan omonat naqd pulda qaytarib berilganda;
- b) omonat hisobvarag'idagi pul mablag'i boshqa bankdagi hisobvaraqqa o'tkazilganda.

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

16. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- a) Omonatchidan O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq omonatni rasmiylashtirishda taqdim etilishi zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilish va olish;
- b) Omonatchining talabi bilan omonat muddatidan oldin to'liq qaytarilganda, ushbu Omonat shartnomasining 13-bandiga muvofiq, Omonatchi bilan qayta hisob-kitob qilishni amalga oshirish;
- d) naqd pulsiz shaklda kirim qilingan omonat naqd pulda qaytarib berilganda Bank tariflariga ko'ra vositachilik haqi undirish;
- e) omonat hisobvarag'idagi pul mablag'i boshqa bankdagi hisobvaraqqa o'tkazilganda Bank tariflariga ko'ra vositachilik haqi undirish;
- f) Omonatchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lsa, uning omonati bo'yicha to'lanadigan foiz (daromad) qiymatidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 382-moddasiga muvofiq 10% miqdorida soliq undirish va soliq organiga o'tkazib berish;
- j) Bank "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidolari" (Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan) talablariga muvofiq ravishda omonatchidan hujjatlar (ma'lumotlar) taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega.

17. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- a) omonatni, Bankni kamida bir oy oldin ogohlantirgan holda muddatidan oldin qaytarish so'ralganda, qaytarib berish;
- b) omonatni sir saqlash va u bo'yicha ma'lumotlarni faqat O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda taqdim etish;
- d) Omonatchining omonat hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar Bank tomonidan to'xtatib qo'yilganda, amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma yuborish;
- e) Omonatchining kredit va mikroqarz bo'yicha qarzдорligini so'ndirish uchun uning omonat hisobvarag'idan mablag' Bank tomonidan Omonatchining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda,

mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning omonat hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda xabarnoma yuborish.

18. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

a) omonatni ishonchli vakili orqali ham tasarruf etish;

b) omonatni O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq har qanday shaxsga vasiyat qilish.

19. Omonatchi quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

a) shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari o‘zgarganda o‘zgarish sanasidan boshlab 10 kun ichida Bankka yozma xabar berish;

b) Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq so‘ralgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim etish.

d) Bankning so‘roviga asosan, “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in quroli tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidolari” (Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro‘yxatga olingan) talablariga muvofiq qo‘shimcha hujjatlar va (yoki) ma’lumotlar taqdim etilishi lozim.

4-§. Taraflarning javobgarligi

20. Taraflar omonat shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

5-§. Fors-major holatlar

21. Taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrda omonat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarining qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

Fors-major holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, ko‘chki, dovul, qurg‘oqchilik va sug‘urta shartnomasida sanab o‘tilmagan boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlat tashkilotlari o‘rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo‘lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar omonat shartnomasini bajarishga bevosita ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa.

Fors-major holatlar yuzaga kelganda va to‘xtaganda taraflar bir-birini xabardor qiladilar. Xabarnoma taraflarda mavjud bo‘lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlari bundan mustasno).

Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish muddatini taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrga mutanosib tarzda kechiktiradilar.

6-§. Alohida shartlar

22. Ushbu omonat shartnomasi omonat mablag'i Bank kassasiga qabul qilingan yoki omonat hisobvarag'iga tegishli mablag' naqd pulsiz shaklda kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur omonat shartnomasi 17-bandining "d" va "e" kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Omonatchiga mobil telefoniga SMS-xabari yuborish orqali topshiriladi.

24. Bank mazkur omonat shartnomasi shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

25. "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (2025-yil 18-fevraldagi O'RQ-1031) muvofiq jismoniy shaxslarning omonatlari kafolatlarga bo'ysunadi. Kafolatlangan hodisa yuz bergan taqdirda, omonatchi bitta bankdan qonun bilan belgilangan quyidagi miqdorlarda kompensatsiya olish huquqiga ega:

a) agar uning miqdori ikki yuz million so'm yoki undan kam bo'lsa, kafolatlangan aktivning to'liq qoldig'i;

b) kafolatlangan aktivning qoldig'i ikki yuz million so'mdan oshsa, ikki yuz million so'm.

26. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlar uchun O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari normalari qo'llaniladi.

27. Taraflar barcha nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadi.

Taraflar omonat shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmagan nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagi tegishli sudga ko'rib chiqishga kelishib oldilar.

28. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi, uning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Omonatchida saqlanadi.

6-§. Tomonlarning pochta manzili, rekviziti va imzolari

Bank:

Manzili: _____

Tel.: _____ Bank kodi: _____

Bank hisobvarag'i: _____

Boshqaruvchi: _____

(muhr o'rni)

Omonatchi:

Manzili: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

JSHSHIR: _____

(familiyasi, ismi va otasining ismi)
